

## MASOFADAN EKSKOVATOR ISHLARINI TASHKILLASHTIRISH TADQIQOTI

**S.M. Melikuziyev, B.B. Hasanov**

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligigi mexanizatsiyalash muhandislari  
instituti” Milliy tadqiqot universiteti*

**B. Azizova**

*Ebersvalde barqaror rivojlanish universiteti ilmiy xodimi (Berlin)*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada zovur va kollektorlarni qazish yoki tozalashda yuqori ish unimdlorligini kafolatlashdagi hamda loyixaviy ko‘rsatkichlarini, loyixada ko‘rsatilgandek anqlikda bajarishdagi muammolar va ularni zamonaviy innovatsion texnologiyalar yordamida bartaraf yetish chora-tadbirlari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** yer osti sizot suvlari, zovur va kollektorlar, boshqaruv tizimi, suniy yo‘ldosh, ma’lumotlarni qabul qiluvchi antena, boshqaruvchi qurilma.

**Kirish.** Yerlarni meliorativ xolatini yaxshilash yuqori xosilni kafolatlash masalalari ochiq kollektor tizimlarini munta’zam va yaxshi ishlashiga bog‘liqdir. Yer osti sizot suvlarni satxini belgilangan chuqurlikda ushlab turish kollektorlarning doimiy ishlashini talab etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 4,3 mln hektar sug‘oriladigan, hosildor yerlar mavjud bo‘lib ularning sizot suvlari ochiq va yepiq kollektorlar bilan doimiy ( $4 \text{ m} \leq h$ ) sathdan ko‘tarlib ketmasligi ta’minlanib kelmoqda. Lekin ochiq kollektorlarning loyqa bosishi va xar hil begona o‘simgiklar bilan to‘lishi juda ko‘p kuzatilmoqda. Bu esa yer osti sizot suvlarning kollektorlarga tushganida nishablik bo‘yicha harakatlanishini chegaralaydi [1].

Kollektorlarni loyqa va begona zararli o‘simgiklar bosishiga quyidagi omillar sabab bo‘ladi.

-Zovur va kollektrarni loyihalashdagi loyixaviy hatolar.

- Zovur va kollektrarni tozalash davrida foydalaniladigan ekskovatorlar boshqaruvchilari (operatorlar) kollektorlarning loyixaviy ko‘rsatkichlarini o‘zgartirib yuborishi. Bu esa o‘z navbatida sizot suvlarning bir joyda to‘planib qolishiga, cho‘kindilarning cho‘kishiga va begona o‘simgiklarning o‘sishiga qulay sharoitdir.

Bunig oqibatida quyidagi muammolar yuzaga keladi:

- Yer osti sizot suvlarning yer usti unimdlor qatlamiciga ilgarilashi.
- Hosildorlikning sezilarli darajada pasayishi.
- Yerlarning sho‘rlanish ko‘rsatkichlari ortishi.
- Begona o‘simgiklar kollektor yuzasini butkul qoplashi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida maqsadida ekskovatorlardan foydalaniladi.

**Tadqiqot uslubiyoti.** Bizga ma’lumki ekskovatorlar ishchi jixoziga harakatni ikki xil usul bilan uzatadi.

1. Mexanik (tros)

## 2. Gidravlik (suyuqlik)

Mexanik boshqaruv tizimiga ega ekskovatorlar (draglayn) ish unimdonligi past, yonilg'i sarfi yuqori va zovur va kollektorlarni qazish hamda tozalashda uning gidravlik parametrlarni taminlay olish qobiliyati past.

Gidravlik boshqaruv tizimiga ega ekskovatorlar esa ish unimdonligi yuqori, ish davomiyligi t (18-22) soniyani tashkil etadi, yonilg'i sarfi kam. Lekin bu ikki tizimning ham kamchiligi zovur va kollektorlarni qazish yoki tozalashda yuqori sifat hamda aniqlikni ta'minlab berolmaydi. Biz bundan atroflicha o'rganib ekskovatorning gidravlik tizimini mustaqil nazorat qiladigan maxsus Topcon GPS X-35 uskunasini qo'llashni tavsiya etamiz.

Uning ishslash prinsipi sodda ko'rinishga ega bo'lib dastlab qaziladigan yoki tozalanidigan zovur va kollektorlarning kompyuterda uch o'lchamli modeli yaratiladi, keyin esa ekskovatorning gidravlik tizimini mustaqil nazorat qiladigan maxsus Topcon GPS X-35 uskunalar bilan jixozlanadi. Shunday qilib ekskovator kabiniga o'rnatilgan sensorli monitorda aks ettirilgan soxadagina grunt ishlarini bajaradi. Buning uchun maxsus ekskovatorlar ta'lab etilmaydi.


Topcon GPS X-35 markali boshqaruv tizimini avtomatik nazorat novigatori quyidagi jixozlar tarkibiga ega (1-rasm).




a-Ma'lumotlarni qabul qiluvchi antena



b-Boshqaruvni doimiy ko'rsatuvchi monitor.




v-Xartumni xarakatini boshqaruvchi qurilma



g-Tirsakning xarakatini boshqaruvchi qurilma




d-Cho'michning xarakatini boshqaruvchi qurilma



ye-Cho'michning harakat aniqligini ta'minlash

**1-rasm. TOPCON GPS X-35 markali boshqaruv tizimini avtomatik nazorat novigatori quyidagi jixozlar tarkibi [3].**

**Natijalar.** Topcon GPS X-35 markali boshqaruv tizimini avtomatik nazorat novigatori grunt ishlari bajarish davrida bir siklda 1-2 sm xatolikka yo‘l qo‘yishi mumkin. Bundan ma’lum bo‘ladiki sikl davrida 30 sm qatlama kesib olinsa qurilma 28-32 sm qatlama qirqadi (2-rasm). Inson omili bilan esa bu ko‘rsatkichlar 6-9 sm tashkil etadi [3].




**2-rasm. TOPCON GPS X-35 markali boshqaruv tizimini avtomatik nazorat novigatori ishlash ketma ketligi.**

Ushbu vosita yordamida ekskovatorchi bevosita loyixada belgilangan obektdan qancha hajmdagi tuproq ishlari belgilangan bo‘lsa, shuncha hajmdagi tuproq ishlini bajaradi. Undan ortiq ham kam bajarmaydi. Bundan ko‘rinadiki tuproq ishlari hajmining kamayishi, yonilg‘i-moylash materiallaridan iqtisod qilish imkoniyatini yaratadi [2].


Mamlakatimizdagи “Dovsuvmaxsuspdurat” davlat unitar korxonalari yoki boshqa shu kabi tashkilotlar ekskovatorlariga kanal, zovur yoki kollektorni qazish hamda tozalashda yuuqori aniqlik va sifatga erishmoqchi bo‘lsak albatta Topcon GPS X-35 markali boshqaruv tizimini avtomatik nazorat novigatori bilan jixozlashni taklif etaman [3].

Zanjirli ekstovatorlarning kanallar va zovurlarni tozalash davrida qirg‘oqqa yaqin kelishi oqibatida zovur yon devorlarining o‘pirlishi uzaga kelishi mumkin (3-rasm)




**3-rasm. Zanjirli yurish uskunalarining gruntga beradigan solishtirma bosimi p (MPa) ni grunt qatlamlari h (sm) ga tasiri**

Ochiq zovurda olib borilgan tadqiqotlarda ham o‘zanining 68% qismida yuvilish jarayonlari kuzatildi. Ochiq B-13-2 zovurning umumiy uzunligi 4260 m bo‘lib, 565 ga maydondan oqib keladigan yer osti sizot suvlari hamda kelib quyuluvchi zovurlardagi suvlarni ekin maydonlaridan uzoqlashtirish uchun xizmat qiladi. O‘rtacha nishabligi  $i=0,00215$  ni tashkil etadi. Tuproq turi bo‘yicha o‘rta va yengil qumoq tuproqlardan tashkil topgan (4-rasm).



**4-rasm. Ochiq zovuri o‘zani tuprog‘ining mexanik tarkibi**

Olib borilgan dala tadqiqotlarida ochiq zovurning 27-stvorida, o‘zandagi suv oqimning chuqurligi  $h=0,65$  m, suv sathi bo‘yicha kengligi  $V=1,10$  m, ko‘ndalang kesim yuzasi  $\omega=0,68$   $m^2$ , ho‘llangan perimetri  $\chi=2,34$  m, suv sarfi  $Q=215$  l/s ekanligi aniqlandi. Ochiq zovurning loyihaviy parametrlarining o‘zgarishi tahlilidan, hozirgi kunga kelib o‘zanda pastga qarab 1,25 m yuvilishi jarayoni sodir bo‘lgan (5-rasm).



**5-rasm. Ochiq zovurning ko‘ndalang kesimi**  
—loyihaviy, —mavjud holat.

Tahlil natijalariga ko‘ra ochiq zovurdagi oqim tezligi yuvilishga qarshi tezlikdan yuqori holatda ekanligi aniqlandi (5-rasm). Natijada yillar davomida ochiq zovur o‘zanida yuvilish jarayonlari sodir bo‘lib boravergan.

Ochiq zovurlarda sarf o‘zgaruvchanligini inobatga olib taklif etilgan gidravlik model va dinamik mustahkamlikni ta’minlaydigan tezlikni aniqlash formulasidan (1) foydalaniib trapesiya shaklidagi o‘zan tubining kengligi quyidagicha aniqlanadi:

$$b = \left( \frac{Q}{g_{\text{o.m}}} - m \cdot h^2 \right) \frac{1}{h} = \frac{Q}{g_{\text{o.m}} \cdot h} - m \cdot h \quad (1)$$

Gidravlik hisoblash ishlarida ochiq zovur o‘zani tubining kengligini suv sarfi o‘zgaruvchanligiga mos ravishda dinamik mustahkam oqim tezligi bo‘yicha loyihalash natijasida ochiq zovurlarning suv sarfining o‘zgarishi hisobiga quyidagi shakldagi ochiq zovur taklif etildi (5-rasm)

**Xulosa.** Topcon GPS X-35 markali boshqaruva tizimini avtomatik nazorat novigatori aniqlik darjasini yuqori bo‘lib bizning “keyinchalik qilinadigan” yangi (kollektorlarni tozalash, nishabligining buzilishini) oldini olishga imkon beradi. Bu taklif yuqoridagi muammolarni bartaraf etishning zamonaviy innovatsion texnologik yechimi deyish mumkin.

Zovur va kollektorlar ta’lab darajasida ishlaydi, yerlarning meliorativ xolati yaxshilanadi, hosildorlik ortadi va qo‘srimcha tuproq ishlari xajmining kamayishi xisobiga iqtisodiy samaradorlik yuqori ko‘rsatkichlarga ko‘tariladi.

Ochiq zovurlarni ekspluatatsiyasida yillar davomida qirg‘oqlari gruntining sho‘rlanish darjasini ortishida yuzaga keladigan qirg‘oq o‘pirishlari shartlari, zovur tuproq tarkibining sho‘rlanganligini inobatga olib asoslandi. Qirg‘oq o‘pirishlarini aniqlash usuli yer osti suv sathini inobatga olish tavsiya etiladi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari ochiq zovurni qurishda yer ishlari hajmining 15% kamayishiga, oqimning tashuvchanlik qobiliyati 25% ortishiga erishildi. Natijada ochiq zovurlardan foydalanishda ishonchliligi oshishi va texnik holatini saqlanib qolishiga imkon yaratadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Shadrin V.N. Sovrimeenye problemy melioritsii i puti ix resheniya // Melioratsiya i vodnoe xozyaytvo. – 2006. -№ 6.
2. Xamraev Sh.R. va boshqalar. Vodnoe xozyaystvo Uzbekistan. Toshkent. NISMVKV. 2011. 84 s.
3. <http://www.topconhassastarim.com/>